

ZAHIRIDDIN BOBUR SALTANATIDA VAFO VA SADOQAT RAHNAMELARI

**Barotova Xurshida Jalolovna**

*Toshkent viloyati, Nurafshon shahar*

*Xalq ta'limi bo'limiga qarashli*

*1- IDUM ona tili va adabiyot*

*fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning sadoqatda tengi yuq mahrami Xonzodabegimning yuksak insoniy fazilatlari, oilasiga sadoqati hamda Shayboniyxon saltanatidagi keyingi hayoti to'g'risida bir qancha ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, Boburning sadoqatli rafiqasi Bibi Muborikaning tahsinga sazovor ishlari tahlillar asosida izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** Oqila, sadoqat, Xurramshoh, qadr, Sherxon Sur, Akbarshoh, Kobul, shijoat, nafosat, Ismoil Safaviy, muruvvat, ehtirom, ulug'vorlik, hurmat.

Temuriy hukmdorlar tomonidan ayollardagi vafo va sadoqat tuyg'ulari hamma vaqt qadrlanib kelingan. Boburmirzo ham nozik xilqat egalaridagi bu kabi yuksak insoniy tuyg'ularni nihoyatda qadrlagan, ayollik dunyosiga mansub bo'lgan har bir ma'suma qalblarni ulug'lagan. Sadoqat haqida gap ketar ekan, boburiylar xonadonining sadoqati yuksak yana bir farzandi-arjumandi Xonzodabegim binni Umarshayx qizining, ukasi Boburmirzo va oilasi uchun qilgan jonbozliklarini eslamaslikning hech iloji yo'q. Yuqorida aytib o'tilganidek, Boburmirzo bilan bir onadan tug'ilgan opasi Xonzodabegim ukasining sha'ni, oila a'zosining salomatligi uchun Samarqandda Shayboniyxondek g'animga xotinlikka rozi bo'ladi. Bu holni Gulbadanbegim xotiralarida, "Hazrati otam oxir Xonzodabegimni o'sha xonga berib o'zlari qaytishlari zarur bo'ldi", – deb yozadi. Shayboniyxon va Xonzodabegim o'rtasida tuzilgan nikohdan bir o'g'il dunyoga keladi. Ismini Xurramshoh deb qo'yishadi. Tarixiy manbalarga yuzlansak, bu nikoh uzoq davom etmaydi, eri bilan bo'ladigan ziddiyatli munosabatlarda ko'pincha Xonzodabegim ukasi Bobur Mirzo sha'nini himoya qilishga harakat qiladi. Bu hol esa Shayboniyxonning har doim g'azabini keltirardi. Inisi Boburmirzo sha'ni, g'ururini himoya qilishi, garchand qarindosh-urug'laridan ayro hayot qurgan bo'lishiga qaramay, hamisha ularning yodi bilan yashagan vafodor malika Xonzodabegim va uning o'g'li Xurramshoh haqidagi ma'lumotlar "Boburnoma", "Habib us-siyar", "Tarixi Rashidiy", "Humoyunnoma", "Ahsan at-tavorix", "Lab at-tavorix", "Tarixi olamoroyi Abbosiy", "Tarixi Qipchoqxoniy", "Majma' ul-g'aroyib", "Musaxxir il-bilod", "Tazkirai tarixi

Muqimxoniy” kabi asarlarda aks etgan. O'tmish tarixni varaqlar ekanmiz, nogahon Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asaridagi qiziq bir ma'lumot fikrimizni tortdi. Ushbu asarda Xonzodabegimning keyinchalik Shayboniy nikohidan chiqarilgani, buning sababi esa Shayboniyxon Xonzodabegimning ukasi Boburning maslahatiga ko'ra xon hayotiga qasd qilib qo'yishi mumkinligidan gumonsiragancha taloq qilib, Sayyid Atoiy avlodidan bo'lmish Sayyid Hodiga bergani,<sup>18</sup> bu sayyidning esa Shayboniyxon va boshqa shayboniy sultonlari, umuman, dashti qipchoqlik barcha o'zbeklar oldida katta e'tiborga egaligi eslatiladi. Yana Sayyid Hodi Marvdagi jangda o'ldirilgach, Xonzodabegim safaviylar qo'lga asir tushgani va Shoh Ismoil uning kimligini bilgach, izzat-hurmat ko'rsatib, o'z elchisi bilan birga Bobur Mirzo oldiga yuborilgani ham qayd etilgan.<sup>19</sup> Boburmironing sadoqatda tengi yo'q opasi Xonzodabegimning oila a'zolari salomatligi uchun qilgan o'zini Shayboniyxondan g'anim ilkiga topshirishi haqiqiy mardonavorlikdir. O'lis tariximizda Xonzodabegimdek mard va shijoatli, har ishi tahsinga loyiq mehribon ayolni uchratish nihoyatda mushkul. Xonzodabegim hayot yo'llariga nazar tashlasak, oila a'zolari; muhtarama validasi, tug'ishgan inisi Boburmirzo hamda qon-qarindoshlaridan ayro o'n yil muddatda yashadi. Taqdirning ne-ne sinovlariga uchradi. Farzandi Xurramshoh 1502- yil may oyida dunyoga kelishi bilan qalbidagi barcha orzu-umidlarini shu farzandi istiqbolida ko'ra boshladi. Xurramshohni hayot yo'llarini yoritguvchi shams deb bildi. Inisi Boburmirzo sha'ni, g'ururi ila Shayboniyxon tomonidan berilajak barcha azob-uqubatlarni yengib o'tmoqlikda o'zida kuch topa oldi. Xurramshoh haqida "Musaxxir il-bilod" muallifi shunday yozadi: "...Yosh bo'lgani uchun ul shohzodaning Otoliqi mansabiga Qanbar Mirzo ko'kaltosh tayinlandi. Ul yaxshi xislatli amir hamisha o'z marhamati qanoti va adolati soyasini mazkur viloyat aholisi boshi uzra yoydi... shuning sharofatidan butun Balx mamlakati obodonchilik va farovonlik topdi. Oliy martabali shohzoda Xurramshohning yorqin ko'ngli ov va shikor havasiga lim to'la, dili gul yuzli yoshlar va quyosh chehrali botirlar bilan suhbat qurmoq ishtiyoqi bilan to'lib-toshgani sababli ko'p vaqtini shikor nashidasini surmoq bilan o'tkazardi. Doimo soyadek otasi Shayboniyxon uzangisi xizmatida yurar, hech qachon uning buyrug'i va farmonini bajarmasdan qolmas, hech bir so'zini ikki qilmas edi..."<sup>20</sup> Tog'asi Boburmirzo ham jiyani Xurramshoh haqida "Boburnoma"da quyidagi ma'lumotlarni

<sup>18</sup> G'ofurjon Sotimovning "Boburiyodalar" kitobida "Sayyid Xo'ja ismli suvoriy" deb keltirilgan.

<sup>19</sup> Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. "Sharq" NMAK, 2010. 147-151-betlar.

<sup>20</sup> Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar mualliflar: Ismoil Bekjonov, Dilorom Sangirova. – Toshkent: Yangi asr, 2009. B.: 130.

keltiradi: "Xonzodabegim Shayboniyxonga tushub edi, bir o'g'ul bo'lub edi. Xurramshoh otluq maqbul o'g'lon. Balx viloyatini anga berib edi. Otasi o'lgandin bir-ikki yildin so'ngra Tengri rahmatig'a bordi".<sup>21</sup> Demak, Xonzodabegim tomonidan yaxshi tarbiyalangan Xurramshoh ham o'zining maqbullug'i ila barchaning ko'nglidan birdek joy olishga urinar, atrofiga hamisha o'qimishli va fozil kishilarni to'plab yurardi. Xurramshoh tabiatida ham tog'asi Boburda mujassam bo'lgan bir qancha ijobiy xislatlarni kuzatishimiz mumkin. Xurramshoh hatto Sayyid Hodixojaga ham yaxshi e'tiqod bilan hurmat saqlay olgan. Hodixoja Boburga chin ixlos qilgan sayyidlardan edi. O'zi tirikligida singli qatorida ko'rgan Xonzodabegimni Boburmirzo qo'lga topshirishga har qancha urinadi ammo Shayboniyxon va Safaviylar bilan to'qnashuvda halok bo'ladi. Eron shohi Ismoil Safaviy Xonzodabegimni Boburning opasi ekanligini bilib o'zi Mirzo Bobur yoniga kuzatadi. Bu haqda "Boburnoma"da quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Shoh Ismoil o'zbekni Marvda bosqonda Xonzodabegim Marvda edi. Mening jihatimdin yaxshi ko'rub, andin uuzatdilar. Qunduzga kelib menga qotildilar. Muforaqat imtidodi o'n yil bo'lub erdi. Men va Muhammadiy ko'kaldosh ikov kelduk, begim va begimning yovug'idag'ilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytdim ham, muddatidan so'ngra tanidilar". Bobur aytganidek, judolik muddati, naq o'n yil bo'lgan edi. Xonzodabegimshu o'n yil ichida hayotning barcha issiq-sovug'ini boshdan kechirgan, sabr-toqati mukammal, aslzoda temuriy malikalardandir. Opasidagi vafo va sadoqat tuyg'ularini nihoyatda qadrlagan Bobur, hamisha uning izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo'yishga harakat qildi. Podshoh Boburmirezdan so'ng uning o'g'li Humoyun shoh hamisha ammasi Xonzodabegimni saroydagi eng e'tiborli malikalar safida e'zozladi. Onasi Mohimbegim vafotidan so'ng davlat boshqaruvining ayrim o'rinlarida Xonzodabegimga suyandi. Xonzodabegim 1545-yilda Kobulhaq degan joyda bu foniy dunyo bilan vidolashdi, oradan uch oy o'tgach, uning xokini Kobulga keltirib, Boburshoh maqbarasiga dafn qiladilar.

Mirzo Bobur hayotiga nazar tashlasak, uning hayot yo'llarida hamqadam, hamnafas yana bir haqiqiy vafo va sadoqat sohibasi, suyukli ayoli Bibi Muborika Begimni eslamay o'tishning hech iloji yo'q. Sababi, bu suyukli ayoli butun umr Boburga sadoqat va ehtirom saqlagan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Boburshohning Hindistonga yurishi oldidan ya'ni 1519-yillar atrofida Yusuf Zay deb atalgan afg'on urug'i sardori Malikshoh Mansurning qizi bo'lgan. "Humoyunnoma"da bu haqida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:" Malik Mansur Yusufzay (Afg'oniy

<sup>21</sup> Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet, – 19-bet.

og'ochaning otasidir) hazratning mulozamatiga keldi. Hazrati podshoh (Bobur) uning qizi Afg'oniy Og'ochani o'z nikohlariga olib, Malik Mansurga ruxsat berdilar. Ularga ot va shohona sarpo inoyat qildilar".<sup>22</sup> Bibi Muborika ana shu Afg'on Og'ochadir. "Boburnoma"ning hech bir o'rnida bu ayol haqida ma'lumot uchramaydi. Ayrim o'rinlarda otasi Mansur Yusufzay haqida qisqa ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tarixchi Muhammadyor fikricha, "Bobur darvesh kiyimida Kobul dashtini, tog'lik aholining turmush tarzini ko'zdan kechirib yurardi. Kunlardan birida u darvesh kiyimida bir ziroatchi dehqon yoniga borib qoladi. Yer nihoyatda qaqshagan, ekinning ahvoli bir tang holatda edi. Haligi dehqon oilasi bilan yerni ko'zada suv berib turganda, Bobur uning ko'zida suv tashib turgan qizini ko'rib qoladi. Yoqtirib qoladi. Qizda ham xeyli mayl paydo bo'ladi, so'ngra nikohiga olib, otasi Mansur Yusufzayga bir talay in'omlar ato etadi. Yusufzayning bir qancha dehqonlarni yoniga yuborib, Kobul kentlarini obod qilishga buyuradi".<sup>23</sup> Shundan keyin xalq orasida bu "Darvesh va go'zal qiz", "Oshiq darvesh" nomi bilan ataluvchi bir qancha cho'pchaklarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi, deb tarixchi Arab Qatag'on o'z asarida yozib o'tgan. Gulbadanbegim o'z xotiralarida Yusufzayga Hazrati otam dehqon va ziroatkornlarni olib kelib o'z Vatanlarini obod qilishlarini buyurdilar, deb aytib o'tadi. Bobur hayotidan hikoya qiluvchi yana bir tarixiy manbaga yuzlansak, Bibi Muborika Boburshohning eng kenja va eng sevimli malikasi bo'lgan va Hindiston sari qilingan yurishlarda doim hamrohlik va hamdardlik qilgan. Sadoqatli malika mana shu Bibi Muborika bo'lgan.<sup>24</sup> Boburshunos olim Anetta Beverij xonim tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarga qaraganda, Bibi Muborika Hindistonga 1529-yilda Malika Mohimbegim va Gulbadanbegimlar bilan birga ko'chib kelgan edi. Biroq taqdir unga farzand ato qilmadi. Bu holat shunday izohlanadi:" Hasadgo'y kundoshlari turli dorilar bilan Bibi Muborikaning pushtini pinhona quritib va erining mijozini susaytirishga urinishardilar. Natijada Bibi Muborika butun umri davomida farzand ko'rmadi. Bobur vafotidan keyin ham saroyda avval Humoyun shoh so'ng Akbarshoh davrigacha hurmatda bo'ldi. Saroyda saroy tabiblaridan tabobat ilmini o'rganib umrining oxirigacha saroy tabiblariga mas'ul bo'ldi".<sup>25</sup> Biroq malika Bibi Muborika Begim Boburshohdan farzand ko'rmagan bo'lsa

<sup>22</sup> Gulbadanbegim. Хумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет. – 30- бет.

<sup>23</sup> Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar mualliflar: Ismoil Bekjonov, Dilorom Sangirova. – Toshkent: Yangi asr, 2009. B.: 130. – 111-bet.

<sup>24</sup> Сотимов Гофуржон. Бобурийзодолар. – Тошкент: "Ўқитувчи", 2003-йил. – 69 бет, – 11-12-бет.

<sup>25</sup> Beveridge, Annette. *Life and writings of Gulba dan Begam (Lady Rosebody)*, Calcutta Review. Calcutta: University of Calcutta, 1898 — 347 bet. (Sarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi № 2814 /09-876 raqamli tarjima matndan olindi. G'ofurjon Sotimov inglizchadan tarjimasasi)

ham, eriga bo'lgan sadoqati va vafodorligi tufayli Sherxon Sur tazyiqi ostida saroydagilar Agra va Dehlini tashlab chiqib ketayotgan ayanchli bir paytda marhum erining vasiyatini amalga oshirish maqsadida Sherxonning ruxsati bilan Boburning qabrini Kobulga olib kelib dafn etadi.<sup>26</sup> Bibi Muborika Akbarshoh davrigacha yashab izzat-ikromda umrguzaronlik qilgan. Uning akasi Mir Jalolxon Boburshohning Hindiston sari yurishlarida birga bo'lib, unga sadoqat bilan xizmat qilgan. Bibi Muborikaning Boburmirzo oldidagi xizmatlari tahsinga loyiqdir. Sherxon Surdek buyuk g'animning yoniga eri vasiyatini ado etish uchun azm-u shijoat va qat'iyat bilan borishi, shunday tala-to'p bir vaziyatda Boburning xokini Kobulga ko'chirishi uning nechog'lik sadoqatli rafiqa ekanligidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham islom dinimizda ayollarning eng yaxshisi – erining haqini ado etganidir, deb bejizga aytishmasa kerak. O'zini musulmon deb bilgan har qanday er kishisi uchun ayolidagi or-nomus, vafo va sadoqat masalasi azal-azaldan oliy o'rinda turgan. Zahiriddin Bobur qarashlarida ham bu kabi tuyg'ular yuksak cho'qqida turgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015. – 699 bet.
2. Bobur. Z.M. Boburnoma (V. Rahmonov, K. Mullaxo`jayeva tabdili ) . – Toshkent: "O`qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 366 bet.
3. [Beveridge, Annette. \*Life and writings of Gulbadan Begam \(Lady Rosebody\)\*](#), Calcutta Review. Calcutta: University of Calcutta, 1898 — 347 bet. (Sarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi № 2814 /09-876 raqamli tarjima matndan olindi. G'ofurjon Sotimov inglizchadan tarjimasi)
4. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. "Sharq" NMAK, 2010-yil.
5. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar mualliflar: Ismoil Bekjonov, Dilorom Sangirova. – Toshkent: Yangi asr, 2009. B.: 130. – 111-bet.
6. Сотимов Ғофуржон. Бобурийзодалар. – Тошкент: "Ўқитувчи", 2003-йил. – 69 бет.
7. Turg'un Fayziev. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. - "Yozuvchi", 1996-yil – 118 bet.
8. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2016. – 117 бет.

<sup>26</sup> Turg'un Fayziev. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. - "Yozuvchi", 1996-yil – 118 bet ,– 74-bet.